



XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI QARORI

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: sirdaryo@exat.uz

2023 - yil 31 - yanvar

VI-44-1-9-0-K/23

Sirdaryo viloyati hokimligi

**Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining bo'shab qolgan
"1-Madaniyat", "4-Namuna" hamda "41-Darvozaqir" saylov okruglari uchun
deputatlik o'rinaliga o'tkaziladigan saylov kuniga o'zgartirish kiritish
to'g'risida**

"Saylov kodeksi"ning 93-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga muvofiq Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi **qaror qiladi**:

1. Xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o'tkazuvchi viloyat saylov komissiyasining 2023-yil 25-yanvardagi 11-sonli xatiga asosan:

Mamlakatimizda jumladan, viloyatimizda kuzatilayotgan anomal sovuq ob-havo saqlanib qolayotganligi munosabati bilan saylovchilarining uchastkalarga kelib ovoz berishlariga hamda uchastka saylov komissiyasi a'zolarining ish faoliyatini olib borishlariga qulaylik yaratish maqsadida Guliston shahridagi "1-Madaniyat", "4-Namuna" hamda Boyovut tumanidagi "41-Darvozaqir" saylov okruglari bo'yicha bo'shab qolgan o'rinalarga Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputatligiga saylov o'tkazish 2023-yil 5-fevral (yakshanba) kunidan 2023-yil 5-mart (yakshanba) kuniga o'zgartirilsin.

2. Xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o'tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi (S.Sattorov) Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati saylovinii O'zbekiston Respublikasining "Saylov kodeksi" talablari asosida amalga oshirsin.

3. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2022-yil 9-dekabrdagi VI-41-153-9-0-K/22-sonli qarorining 1-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin.

“1. Guliston shahridagi “1-Madaniyat”, “4-Namuna” hamda Boyovut tumanidagi “41-Darvozaqir” saylov okruglari bo‘yicha bo‘shab qolgan o‘rnlarga Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputatligiga saylov o‘tkazish 2023-yil 5-fevral (yakshanba) kunidan 2023-yil 5-mart (yakshanba) kuniga o‘zgartirilsin.”

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi D.Abdullayeva zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi o'rribosari



M.Xodjiyev